

ADABIYOT DARSLIKLARIDA DRAMATIK ASARLARNING BERILISHI

Xurramova Aziza Toshtemir qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Muslihiddin Muhiddinov, ilmiy rahbar, f.f.d., professor

Khurramova75@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darsliklarida dramatik asarlarning berilish tamoyillari, ularning o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek darsliklarda dramatik asarlarni o'rgatishning samarali metodlari, sahnalashtirish mashqlari va obrazlar tahlilining pedagogik ahamiyatiga alohida etibor qaratiladi.

Kalit so'zlar. Adabiyot darsliklari, dramaturgiya, dramatik asar, sahna madaniyati, obraz, dialog, o'quv-tarbiyaviy ahamiyat, metodika, maktab adabiyoti, adabiy tahlil.

EDEBIYAT DERS KITAPLARINDAKI DRAMATİK ESERLERİN SUNUMU

Khurramova Aziza Toshtemir kızı,

Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü'nde yüksek lisans öğrencisi

Muslihiddin Muhiddinov, bilimsel danışman, felsefe doktoru, profesör

Özet. Bu makalede edebiyat ders kitaplarında dramatik eserlerin sunuluş ilkeleri, bunların öğrenci eğitimindeki yeri ve önemi tartışılmaktadır. Ders kitaplarında ayrıca dramatik eserlerin etkili öğretim yöntemleri, sahneleme çalışmaları ve karakter analizinin pedagojik önemine özel yer verilmektedir.

Anahtar kelimeler. Edebiyat ders kitapları, dramaturji, dramatik eser, sahne kültürü, imge, diyalog, eğitimsel önem, metodoloji, okul edebiyatı, edebi analiz.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ДРАМАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В УЧЕБНИКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Хуррамова Азиза Тоштемур кызы,

магистрантка Узбекско-Финского педагогического института

Муслихиддин Мухиддинов, научный руководитель,

доктор философских наук, профессор

Аннотация. В статье рассматриваются принципы изложения драматических произведений в учебниках литературы, их роль и значение в воспитании учащихся. Особое внимание в учебниках уделяется также эффективным методам преподавания драматических произведений, постановочным упражнениям, педагогическому значению анализа характеров.

Ключевые слова. Учебники литературы, драматургия, драматическое произведение, сценическая культура, образ, диалог, воспитательное значение, методика, школьная литература, литературный анализ.

PRESENTATION OF DRAMATIC WORKS IN LITERATURE TEXTBOOKS

Khurramova Aziza Toshtemir qizi,

master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Muslihiddin Muhiddinov, scientific supervisor, Ph.D., professor

Abstract. *This article discusses the principles of presenting dramatic works in literature textbooks, their role and importance in the education of students. Special attention is also paid to effective methods of teaching dramatic works in textbooks, staging exercises, and the pedagogical importance of character analysis.*

Keywords. *Literature textbooks, dramaturgy, dramatic work, stage culture, image, dialogue, educational significance, methodology, school literature, literary analysis.*

Adabiyot – bu xalq qalbining, tarixining, ruhiyatining badiiy ifodasi bo‘lib, uning har bir janri o‘quvchini hayotga, jamiyatga, voqelikka o‘zgacha nigoh bilan qarashga o‘rgatadi. Uning asosiy janrlaridan biri bo‘lgan dramaturgiya vositasida jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy muammolar yorqin obrazlar orqali ifodalanadi. Qolaversa, dramaturgiya janri o‘zining voqelikni jonli sahna tasviri orqali ifodalashi, obrazlar qarama-qarshiligi orqali g‘oyani ochib berishi bilan ajralib turadi. Dramatik asarlar o‘ziga xos shakl va mazmun, jonli dialog va ziddiyatli syujetlarga ega bo‘lib, o‘quvchilar tafakkurini, ifodali nutq ko‘nikmalarini, estetik didini va sahna madaniyati haqidagi tasavvurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maktab adabiyot darsliklarida dramatik asarlarning berilishi, asosan o‘quvchilarning yoshiga, dunyoqarashiga va idrok darajasiga mos holda amalga oshiriladi.

Dramaturgiya – adabiy janr sifatida. Dramaturgiya – bu adabiyotning asosiy janrlaridan biri bo‘lib, voqelikni harakat, dialog va sahnadagi qarama-qarshiliklar orqali tasvirlaydi, shuningdek, voqealarni obrazlar orqali sahnada jonli ifodalashga mo‘ljallangan adabiy janr bo‘lib, asosan dialog va monologlar asosida quriladi. Dramatik asarlarda voqealar keskin ziddiyatlar orqali ochiladi, obrazlar o‘zaro to‘qnashuvi orqali g‘oya va mazmun ifodalanadi. Bu janrda yozilgan asarlar drama, tragediya, komediya kabi turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Asosiy xususiyati – matn sahnaga qo‘yishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bu janrda har bir so‘z, har bir harakat muhim bo‘lib, o‘quvchini o‘ylashga, baholashga, his qilishga undaydi. O‘zbek adabiyotida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlar bu janrda muhim asarlar yaratganlar. Dramaturgiyaning asosiy belgilari:

1. Dialogik tuzilma. Dramaturgiya proza yoki she‘riyatga qaraganda ko‘proq dialog asosida quriladi. Obrazlar bir-biri bilan muloqotga kirishadi, voqealar ushbu suhbatlar orqali rivojlanadi.

2. Konflikt (ziddiyat). Har qanday dramatik asarning markazida ichki yoki tashqi ziddiyat turadi. Bu ziddiyatlar obrazlarning harakatlariga turtki beradi, asar syujetini harakatga keltiradi.

3. Sahna harakati. Asar voqealari sahnada ko‘rsatiladigan tarzda ifodalanadi. Har bir epizod, dialog, ishora, imo-ishora (remarka) aniq ifodalanadi.

4. Cheklangan tafsilot. Romanda yozuvchi tasvirlab beradigan manzara, ichki kechinma va tafsilotlar dramaturgiyada obraz harakati, sahna vositalari va replikalar orqali namoyon bo‘ladi.

5. Vaqt va makonning birlik tamoyili. Ko‘pchilik dramatik asarlar bir joyda va qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Bu antic dramaturgiyadan boshlangan an‘anadir. (Aristotelning “uch birlik” qoidasi).

Demak, endi dramaturgiyaning turlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bular:

Tragediya – bu dramatik asarning bir turi bo‘lib, unda bosh qahramon og‘ir sinovlarga duch keladi, ichki va tashqi ziddiyatlar bilan kurashadi va asar ko‘pincha fojeaviy yakun bilan tugaydi. Tragediyada inson taqdiri, ahloqiy tanlov, ezgulik va yovuzlik to‘qnashuvi chuqur tasvirlanadi. O‘zbek dramaturgiyasida tragediya janri ko‘proq XX asrda shakllana boshlagan. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot” asarida ayollar taqdiri va ijtimoiy adolatsizlik tragediya yo‘sinda ko‘rsatilgan. Uyg‘un, Mirtemir kabi ijodkorlar ham tarixiy va ma‘naviy fojealarni dramatik shaklda yoritganlar. Tragediyaning asosiy belgilari esa quyidagilardan iboratdir: Eng avvalo, fojeali yakun – voqea odatda qahramonning halokatga uchrashi, o‘limi yoki umidsizlik bilan yakunlanadi. Ziddiyat – ichki (insonning o‘zi bilan), yoki tashqi (jamiyat, taqdir, kuchlar bilan) to‘qnashuvlar asosiy harakatni belgilaydi. Keyingi asosiy jihati yuksak mavzular – sevgi,

vatanparvarlik, sadoqat, adolat., haqiqat kabi katta g'oyalar ko'tariladi. Yana bir asosiy belgisi qahramonning fojeali xatosi - ko'pincha bosh qahramon o'z xatosi yoki muayyan qarori tufayli o'zini fojeaga olib keladi. Va oxirgi jihati bu tashviqot va tarbiya – tragediya tomoshabinda qo'rquv va achinish tuyg'ularini uyg'otib, uni axloqiy jihatdan poklaydi. Umuman olganda, tragediya inson ruhiyatidagi chuqur iztiroblar, og'riqli tanlovlar va hayot-mamot kurashini ifodalovchi dramatik janr bo'lib, u tomoshabinni ruhiy jihatdan larzaga solidi, o'ylantiradi va tarbiyalaydi.

Komediya – bu dramatik janr bo'lib, unda kulgili voqealar, ijtimoiy illatlar, insondagi kamchiliklar, hayotdagi g'alati holatlar kulgi orqali tasvirlanadi. Komediya odatda baxtli yakun bilan tugaydi va ko'ngilochar hamda shu bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi" komediyasi eng mashhur o'zbek komediyalaridan biri bo'lib, asarda o'ziga xos ayol obrazi – Maysara orqali jamiyatdagi nodonlik, kamsitish va xudbinlik ustidan kulgi vositasida tanqid qilinadi. Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida esa zamonaviy oilaviy munosabatlar, avlodlararo ziddiyatlar lirik-komedik ohangda berilgan. Komediya insonni kuldira turib, o'ylantiradigan va tarbiyalaydigan janrdir. U insondagi kamchiliklarni yumshoq yoki achchiq kulgi orqali ochib beradi. Adabiyot darsliklarida komediyalar bolalar va o'smirlarning hazil tuyg'usini, tanqidiy fikrlashini va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Drama – bu hayotda uchraydigan oddiy insoniy muammolar, ichki kechinmalar va real voqealarni badiiy tarzda ifodalovchi dramatik janrdir. Unda na komediyadagi kulgi, na tragediyadagi fojea ustun, balki hayotning muvozanatli, tabiiy holatlari ko'rsatiladi.

Melodrama – bu his-tuyg'ularga boy, kuchli emotsional voqealarga asoslangan dramatik janrdir. Unda ezgulik va yovuzlik Keskin to'qnashadi, syujet sarguzashtli, ko'pincha romantik yoki oilaviy mojarolarga boy bo'ladi. Asosan melodrammaga jahon adabiyoti durdonasi bo'lmish "Romeo va Julietta"ni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Keling endi, maktab darsliklarida dramatik asarlar nima uchun berilishi kerakligi xususida biroz to'xtalaylik. Dramatik asarlar:

1. Hayotni jonli obrazlarda ko'rsatadi. Dramatik asarlar hayotiy voqealarni sahnadek tasvirlaydi. Dialoglar, harakat va ziddiyatlar orqali o'quvchilar real hayotga yaqin voqealarni badiiy ifodada anglaydi. Bu esa ularda tasavvur va badiiy tafakkurni rivojlantiradi.

2. Muloqot madaniyatini o'rgatadi. Drama asarlari ko'p hollarda dialog shaklida yozilgan. O'quvchi bunday matnlarni o'qish orqali to'g'ri, ravon, mantiqli fikrlash va gapirishni o'rganadi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali darsda bu mashq qilinadi.

3. Ziddiyat orqali fikrlashga undaydi. Dramada asosiy kuch – konflikt, ya'ni ziddiyatdir. Bu o'quvchining faqat voqeani o'qish emas, balki voqea sababini anglash, obrazlarga baho berish, voqealarga nisbatan o'z fikrini shakllantirishiga olib keladi.

4. Axloqiy tarbiyada samarali. Ko'plab dramatik asarlarda halollik, mehr, fidoyilik, adolat, sabr kabi insoniy fazilatlar targ'ib qilinadi. O'quvchi bunday asarlar orqali yaxshi va yomonni farqlashni, jamiyatda o'z o'rnini anglashni o'rganadi.

5. Sahna ijodiga kirish imkonini beradi. Dramatik asarlar orqali o'quvchilar teatrga qiziqish bildiradi, sahnalashtirish, rolda ishtirok etish orqali ijodiy tafakkur va jamoaviy ishlash ko'nikmasini hosil qiladi.

6. Til va nutqni boyitadi. Dialoglar orqali jonli, xalqona va ta'sirli til namunalarini o'zlashtirish mumkin. Bu esa o'quvchilarning so'z boyligi, iboraviy fikrlashi va ifoda mahoratini oshiradi.

Dramatik asarlar maktab darsliklarida adabiy-estetik tarbiya, shaxsiy fikrlashni rivojlantirish, ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish uchun nihoyatda muhim vositadir. Ular o'quvchini faqat badiiy matn o'qishga emas, balki uni anglash, tahlil qilish va hayotda qo'llashga o'rgatadi.

Dramatik asarlarni o'qitishning samarali usullari. Dramatik asarlar adabiyot darslarida o'ziga xos metodlar asosida o'rgatiladi. Quyidagi usullar ayniqsa samaralidir:

Dialog asosida tahlil: O'quvchilar asardagi muhim sahnalarni rollarga bo'lib o'qiydi, bu orqali ular obrazlarning xarakterini chuqurroq anglaydi va qahramonlarning his-tuyg'ularni o'zlarida his qilishadi.

Sahnalashtirish: Ba'zi darslarda kichik sahnalar tayyorlanib, o'quvchilar tomonidan namoyish etiladi. Bu ijodiy yondashuv ularning ishtiyoqini oshiradi va dramaturgiyaga yanada muhabbat uyg'otadi.

Obraz tahlili: Har bir obrazning harakteri, nutqi, ijtimoiy o'rni, muallif bergan baho o'rganiladi.

Interfaol metodlar: Klasterlar tuzish, "Venn diagrammasi", "Fikrlar xaritasi" kabi metodlar orqali obrazlar va voqealar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi.

Dramaturgiya orqali o'quvchilarda shakllanadigan ko'nikmalar. Dramatik asarlarni o'rganish natijasida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

Estetik did va badiiy tafakkur: O'quvchi obrazlar orasidagi ziddiyatni tahlil qilish orqali voqealarga badiiy nigoh bilan qaray boshlaydi.

Nutq madaniyati: Dialog va monologlar ustida ishlash orqali o'quvchi so'z boyligini oshiradi, ifodali gapirishni o'rganadi.

Sahna madaniyati: Sahnalashtirish orqali o'quvchi aktyorlik mahorati, sahnadagi harakatlar, mimika va nutq ohangi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash: Har bir obrazning harakatiga baho berish, muammo va yechimlar ustida fikr yuritish o'quvchini mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

So'nggi yillar davomida dramaturgiya shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San'atkorlar jahon dramaturgiyasining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'analariga ko'ra ko'plab she'riy dramalar dunyoga keldi. E.Vohidovning "Istanbul fojeasi", A.Oripovning "Sohibqiron", U.Qo'chqorning "Rasululloh kotibi", R.Bobojonning "Yusuf va Zulayho" kabi asarlari ana shu usulda bitilgan. Dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'rinadi. Bu borada ayniqsa, tarixiy mavzudagi sahna asarlarining ko'payganligini alohida ta'kidlash lozim. Tarixga munosabatning o'zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy me'rosini qadralsh, tarixiy manbalarni o'rganish tufayli xalqimiz o'zligini anglash jarayonini boshdan kechirdi. Ayniqsa, Amir Temur, Ahmad al-Farg'oni, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar haqida rang-barang janrlarda turli shakllardagi sahna asarlari dunyoga keldi. Bular orasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning "Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash qissasi" nomli tarixiy dramasi muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Odil Yoqubov dramaturgiya borasida xiyla tajribali adib. 60-yillardayoq "Aytsam tilim kuyadi, aytmamam dilim", "Yurak yonmog'i kerak", "Chin muhabbat", "Olma gullaganda", "Bir koshona sirlari" deb atalgan dramalari bilan shuhrat qozongan edi. Mana shu tajriba va mahorat san'atkorning so'nggi dramasida o'zining yaxshi samarasini bergan. Jumladan, ijodkor maqsadi, g'oyasi, nuqtayi Nazari izchil va aniq bo'lmasa, uning asari tuzilish jihatdan puxta, muvaffaqiyatli chiqmaydi [1. 4 b.]. Bu davrda zamonaviy mavzularda ham ko'plab dramalar dunyoga keldi. Bu borada Erkin Xushvaqtov, Salohiddin Sirojiddinov, Usmon Azim, Sanjarali Imomov, Xoliq Xursandov, Nasrullo Qobil, Komil Avaz va Toir Yunusovlar samarali ijod qildilar. Ulardan ba'zilarining asarlari teatrlarning doimiy repertuariga aylandi va tomoshabinlarning tashnaligini qondirib, teatrlarga qiziqishini orttirdi. Zero teatrning xalqni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashning eng samarali va jonli vositasi ekanligi azaldan ma'lum. Sahna real hayotning badiiy ko'zgusidir. Shu ma'noda yuqorida nomlari tilga olingan dramaturglardan E.Xushvaqtov ayniqsa, uloqda sovrinni olib ketdi. Uning O'zbekiston milliy teatrida birin-ketin sahnalashtirilgan "Chimildiq", "Qalliq o'yin", "Qirmizi olma", "Andishali kelinchak" kabi pyesalariga iloji boricha o'zbek xalqining azaldan yashab kelgan udumlari ruhini, mohiyatini singdirishga, ularni yangicha an'analar bilan boyitishga, yosh avlodning munosabatini oshirishga urinadi. Ko'p hollarda bunga erishdi ham. Lekin "Chimildiq", "Qalliq o'yin" dramalari avvalo, yengil-yelpi voqealar asosiga qurilgani, personajlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ta sun'iyiligi urf-odatlarimizning qadrini ko'tarish o'rniga o'ziga nafrat uyg'otadi. Bu dramalarda

yechim ham tomoshabinni qoniqtirmaydi [2. 92-97 b.]. Dramaturg tomonidan ma'lum bir g'oya asosida sahnalashtirish uchu asarning tug'ilishi, rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, unga qo'yiladigan talablar dramaturg mahorati deya tushuniladi. Shunday ekan, dramaturgiyaning, jahon miqyosida paydo bo'lish bosqichlarini o'rganish uchun uning tarixiga teatrshunos, san'atshunos olimlar va soha mutahassislar fikriga murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi [3. 3 b.]. Mustaqillikning ikkinchi o'n yilligi orasida dramaturgiyamiz tez rivojlana boshladi. Dramaturgiya va rejissurada katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yaratilgan tarixiy va zamonaviy mavzulardagi asarlarda insonni ulug'lash, Vatanga mehr va sadoqat, qadriyatlarimizga hurmat g'oyalari badiiy g'oyalarda o'z aksini topdi [4. 181 b.]. To'g'ri, ijtimoiy mavzulardagi asarlar ham kame mas, ularda ham g'oya ustuvorligi seziladi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, insonlar ongiga salbiy ta'sir etadigan voqealarga, hodisalarga qarshi kurash voqeasi ko'rsatilayotgan, tomoshabinga havola etilayotgani yaxshi, ammo muhokamalar ya'ni asarlarga taqrizlar juda kam e'lon qilinayotgani esa afsuski, bugungi kun muammolaridan biriga aylanib qoldi [4. 49 b.].

Adabiyot darsliklarida dramatik asarlarning berilishi, o'quvchilarning adabiyot bilan mushtarak aloqasini rivojlantirish va ularni dramatik asarlarning mazmuni, tuzilishi va qahramonlari bilan tanishtirishda muhim rol o'ynaydi. Darsliklarda dramatik asarlarning berilishi o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni o'z-o'zini ifoda etishga tahlil qilishga undashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar dars jarayonini interfaol va qiziqarli tarzda tashkil etishga harakat qilishlari kerak. Bu yondashuv orqali o'quvchilar dramatik asarlarning chuqur, ko'p qatlamli va o'zaro bog'langan mazmunini tushunishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darsliklarida dramatik asarlarning berilishi o'quvchilarning badiiy tafakkurini, estetik didini, nutq madaniyatini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Dramaturgiya janrining darsliklardagi namunalari orqali o'quvchilar hayotiy voqealarni sahna ko'rinishida tasavvur qilishni, obrazlar dunyosini tahlil etishni va o'z fikrini ifodali bayon qilishni o'rganadilar. Shuningdek, dramatik asarlar orqali ularda axloqiy qadriyatlar, sahna madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois, adabiyot darslarida dramatik asarlarni puxta o'rganish va ularni zamonaviy ta'lim metodlari asosida yoritish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tashmumammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. – T. 2014.
2. Isakova M. Dramaturg mahorati. – T. 2021. 3-4 b.
3. To'laxo'jayova M., Qozoqboyev T. Drama nazariyasi. – T.: Fan va texnologiyalar markazi. 2014. 49-b.
4. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. 93-93 b.
5. Ибрагимовна, УЛ (20). Абдулла Ориповнинг «Сохибкирон» драмеси мардонаворлик ва жасурлик ғояларининг улуғланиши. Теория современных научных исследований в области педагогики.